

**BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINING KREATIVLIK  
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARI**

**dots.Choriyeva Sanam Tojiyevna**

*Termiz davlat universiteti,*

*Tel: +998(97)350 03 14*

*sanamchoriyeva3@gmail.com*

**Kurbanova Moxinur Baxtiyor qizi**

*Tel: +998(77)2751113*

*denietsssa@gmail.com*

**Ergashev Farxod Abdumurodovich**

*Termiz davlat universiteti*

*Matematika ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*Tel: +998(50) 0011904*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida amaliy ko'nikmalar, kreativ qobiliyatni shakllantirish va rivojlanirish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida elektron axborot ta'lim muhitini yaratish asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning kreativ fikrlashini qobiliyatlarini rivojlaniruvchi omillar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, qobiliyat, interfaol metodlar, innovatsiya.

**РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ**

**доц. Чориева Санам Таджиевна**

*Термезский государственный университет,*

*Телефон: +998(97)350 03 14*

**Kurbanova Moxinur Baxtiyor qizi**

*Tel: +998(77)2751113*

*denietsssa@gmail.com*

**Ergashev Farxod Abdumurodovich**

*Термезский государственный университет*

*студент 3 курса математического образования,*

*Tel: +998(50) 0011904*

**Абстрактный:** В данной статье изложены мнения о формировании и развитии практических навыков и творческих способностей в процессе подготовки будущих учителей профессионального образования. Также описаны факторы, развивающие творческие мыслительные способности педагогов будущего профессионального образования на основе создания электронной информационной образовательной среды в образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** Креативность, способности, интерактивные методы, инновации.

## **DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS THEORETICAL BASICS**

**Assoc. Choriyeva Sanam Tajiyevna**

*Termiz State University,*

*Phone: +998(97)350 03 14*

*sanamchoriyeva3@gmail.com*

**Kurbanova Moxinur Baxtiyor qizi**

*Tel: +998(77)2751113*

*denietsssa@gmail.com*

**Ergashev Farxod Abdumurodovich**

*Termiz State University*

*3rd year student of mathematics education,*

*Tel: +998(50) 0011904*



**Abstract:** This article contains opinions on the formation and development of practical skills and creative abilities in the process of training future vocational education teachers. Also, the factors that develop the creative thinking abilities of the teachers of the future professional education based on the creation of an electronic information educational environment in educational institutions are described.

**Key words:** Creativity, ability, interactive methods, innovation.

### KIRISH.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi-Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida "pedagog xodimlarning o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faoliyat ko'rsatish huquqiga ega ekanliklari ta'kidlab o'tilgan. [1]

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobjiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, uchun raqobatbardosh mutaxassislarni bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarni yetkazib berish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish"<sup>156</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Buyuk allomalarimiz yangi g'oyalar, yangicha yondashuvlarni ta'limga joriy qilish bo'yicha tinmay kurash olib borganlarini ko'rish mumkin. SHarqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad al Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Boburlar o'z davrining yangi ilg'or pedagogik g'oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta'lim-o'sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida

<sup>156</sup>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. [2]

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogokada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o’lchamli) psixik (ruhiy) ta’lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.<sup>157</sup>

Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog’liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

**Kreativlik** (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvshi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovshi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvshi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.


Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo’llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).<sup>158</sup>

<sup>157</sup> Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. -285с.

<sup>158</sup> Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454

## Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar



Oliy ta'lif muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malakalarini rivojlanishining o'zgarishini baholash;

– Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi davrda ta'limga axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sabablibarchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Bir misol, shaxsiy kompyuter ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptonlar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekistonning mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloq qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarini tatbiq etish bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigelik samara va mazmun kasb etmoqda.

Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'daniy-ma'naviy yangilanishning muhim sub'ekti bo'lgan yoshlar, ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lida borayotgan mamlakatimizning uzuksiz ta'lim tizimini isloq qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzuksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashningasosi yaratildi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinushi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi.

Prezidentimiz va hukumatimizning diqqat markazidagi masalalar qatoriga ta'lim jarayonini axborotlashtirish masalasi ham kirib, ushbu masalani hal etish bo'yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Bu qonun va qarorlarning asosini o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron

darsliklar hamda multimedya vositalarini keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan va o'z kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanadigan yuqori malakali, axboriy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarini joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish borasida chora-tadbirlar belgilab berildi.<sup>159</sup>

Prezidentning ta'kidlashicha, ta'lif sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir: «Yusuf Xos Xojib bobomiz aytganlaridek, “Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lif dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur».

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning taraqqiyot darajasi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya'ni ta'lif tizimining rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda ta'lifning mazmuni va uning sifati masalalari ta'lif tizimida ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ham ta'lifni axborotlashtirishga, ya'ni ta'lilda yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu mamlakatlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lifning sifatini oshirishda keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Darhaqiqat, axborot texnologiyalari va internetdan ta'lilda foydalanish ta'lif sifatini yanada yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarishga zamin yaratadi.

Jahon ta'lif tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror

<sup>159</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsiyalar, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o‘quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.[\[3\]](#)

Interfaol ta’limda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, talaba bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta’lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta’limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o‘qitish metodlaridir. Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini hamda o‘qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.

Interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHu sabali ularda kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati mavjud.

Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topdik:

- talabalarda ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlesh ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishslash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish; o‘quv loyihibarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish; to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
- ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- kichik guruhlarda ishslash;
- treninglar;
- videotreninglar;
- taqdimotlar;

- viktorinalar;
- ijodiy loyihalash mashg'ulotlari;
- interfaol ekskursiyalar;
- interfaol ma'ruzalar;
- vebinlar;
- davra suhbatlari.

Demak, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

**Ta'lism texnologiyasi-** axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Aniq ilmiy loyihalashtirilgan, samarali natijani kafolatlovchi, takrorlana oluvchi, ma'lum vaqt va shart- sharoitlarda tashkil etiluvchi pedagogik harakatlar tizimidir.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lism metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Ta'lism texnologiyalari nazariy fan sifatida pedagogika fanlarining alohida yo'nalishini tashkil etib, o'z maqsadi, vazifalari, muammolari, metodologiyasi va boshqa nazariy asoslarga ega.

Ma'lumki, tez o'zgarayotgan axborotlashgan jamiyatda ta'lism muassasalarida bir tomonlama ta'limga har tomonlama rivojlantiradigan ta'limga e'tiborni kuchaytirish talab qilinmoqda.

Zamonaviy ta'lism muassasasidagi o'quv jarayonining asosiy vazifasi - bu o'qitish sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdir. Shunga ko'ra, o'quvchiga munosabat, ularga yondashish tamoyillari o'zgardi. Zamonaviy dars jarayonida har bir o'quvchiga uning o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda o'quv jarayonida ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratildi. Bunday yondashishda o'quvchilar o'z

tengdoshlari bilan muloqot qilish, olgan bilimlarini amaliy qo'llash, ushbu bilimlarni kundalik hayotimizda qayerda, qanday va qaysi maqsadlarda qo'llanilishini anglab olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. [4]

Endilikda o'quvchi nafaqat bilim, ko'nikma va malaka oluvchi, balki mustaqil fikr yurita oladigan, axborot, internet va qo'shimcha manbalardan yangiliklarni izlovchi, tahlil qiluvchi hamda taddiqotchidir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ta'limdagagi o'qitish metodlarining zamonaviy to'plamini, metodik va didaktik materiallarni yaratish hamda mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarni o'rghanishga o'zgacha yondashishni talab qiladi.

**Xulosa:** Olingan xulosa va bildirilgan tavsiyalardan o'quv jarayoni sifatini ta'minlashda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda, ta'lim muassasalari faoliyatida kreativ yondashuv asosida o'qitishni takomillashtirish jarayoniga xizmat qiladi.

Aynan shunday-yangi zamonaviy raqamlashtirish davrida kreativ qobiliyatli pedagoglarga yurtimizning ta'lim sohasi bo'yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishida hal qiluvchi rolni bajaradilar.

Bo'lajak kasb ta'limi oqituvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish zarur va kompyuter dasturlarini mustaqil va amaliy ishlata olishligi muhimdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI.

[1]. Mirziyoyev Sh.M.Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston. – 2017. -104 b.

[2]. <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/12410>

[3]. "Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish: muammo va echimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2023-yil 18-oktabr, Toshkent "Metodist nashriyoti".

[4]. Turdimurodov B. K. KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy,ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274,2023yil 4-son – C. 338-342.